



TARBIYA FANI ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA IQTISODIY TARBIYA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Saparova Umida Baxromovna

(<https://orcid.org/0009-0005-5709-4073>)

umidasaparova7@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko‘chasi

1-uy, Tashkent 100149, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752511>

Kalit so‘zlar: Tarbiya, iqtisod, o‘quvchi, o‘qituvchi, bilim, fan, metodika, baholash, me‘zon

Annotasiya. Ushbu maqola tarbiya fani asosida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalarining shakllantirishda xalqaro baholash me‘zonlarini o‘quvchilarga o‘rgatish metodikasi haqida so‘z boradi. Tarbiya fani shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlar bilan bir qatorda iqtisodiy bilimlarni ham shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, shu nuqtai nazaridan uni o‘rgatishda albatta xalqaro baholash me‘zonlarining ahamiyati yuqori; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar masalasi. Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi.

1.KIRISH.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiyasi har tomonlama e‘tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu munosabat bilan “Tarbiya” fani bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga qo‘yilayotgan konseptual talablar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan orqali o‘quvchilarda iqtisodiy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarni ta‘lim mazmuniga keng singdirish, o‘quv fanlari doirasidagi iqtisodiy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, muvaffaqiyatga erishishga intilish motivini shaxsning ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlash, bola ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, kasblar to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish, vijdonan mehnat qilish ko‘nikmalarini o‘rgatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish jarayonida iqtisodiy tarbiya ko‘nikmalarini shakllantirish borasidagi fikrlar o‘z aksini topgan.

2.TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagi boshqaruvchilari yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Yurtimizda azal-azaldan umuminsoniy va o‘zbekona qadriyatlarni, milliy urf-odat va an‘analarni ulug‘lash, ularga chuqurroq nazar tashlab kelajak avlodga yetkazish uchun e‘tibor qaratib kelingan. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma‘naviy hislatlarga ega, iymon-e‘tiqodi butun, o‘z xalqi, o‘z ona- Vatani fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Shunday ekan farzandlarimizni iqtisodiy bilimlarini shakllantirish asosiy maqsadimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta‘lim sifatini baholash



bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

1. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS)- boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun;
2. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS)-4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;
3. The Programme for International Student Assessment (PISA)-15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;
4. The Teaching and Learning International Survey (TALIS)-rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

Yuqoridagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi.

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining milliy vakili sifatida ishtirok etish;
- ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Buning uchun, 2019-yil 1-fevraliga qadar, Milliy markaz bilan birgalikda o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-sinfidan boshlab aniqlash va rivojlantirish, o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishni ta'minlash dasturini ishlab chiqish yuzasidan bir qator vazifalar belgilandi.

3.MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bilamizki, boshlang'ich ta'lim – bola hayotida muhim ahamiyatli, tubdan yangi bosqichdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi ta'lim muassasasida tizimli bilim ola boshlaydi, uning tevarak olam bilan o'zaro munosabatlashuv sohasi kengayadi. Boshlang'ich ta'lim ta'limining keyingi barcha bosqichlaridan uchun asos hisoblanadi. Shunga bog'liq ravishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni egallashi, balki umume'tirof qilingan xalqaro ta'lim talablar va standartlarga muvofiq kasbiy faoliyatning muayyan usullari to'plamini ham chuqur o'zlashtirishi lozim.

Bugungi kunda, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi



xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda. "PIRLS tadqiqot dasturi boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining (4 sinf) kitobxonlik darajasini baholaydi. Ya'ni o'quvchining matnni tushunishi va o'qish sifatini tahlilidir". PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlardagi boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

4. TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga xalqaro tadqiqotlar o'tkaziladigan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy, mintaqaviy va tarmoq markazlarining o'quv dasturlariga xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borish asosiy vazifa qilib belgilangan. Ushbu vazifalarni bajarishda biz boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda ularni TIMSS baholash me'zonlariga tayyorlashda o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirish talab etiladi. Quyida biz TIMSS dasturiga boshlang'ich o'quvchilarni tayyorlashda quyidagi masalalar namunalarini tahlil qilishimiz zarur:

4-sinf TIMSS masalalaridan namunalar

1-masala (dunyo bo'yicha o'rtacha 73%, Singapur 95%, Rossiya 14%).


Tom nonning qismini, Yana esa qismini yedi. Ikkalasi birgalikda nonning qaysi qismini yeyishdi?

2-masala (dunyo bo'yicha o'rtacha 44%, Gongkong 82%, Singapur 81%, Rossiya 35%).


Qaysi kasr qolganlarga teng emas?

- A. $\frac{1}{2}$
- B. $\frac{4}{8}$
- C. $\frac{2}{4}$
- D. $\frac{2}{8}$

3-masala (dunyo bo'yicha o'rtacha 69%,Portugaliya 93%, Rossiya 84%)




Yuqoridagi 6 ta figuranan quyidagilardan qaysi birini tuzsa bo'ladi?




4-masala

(dunyo bo'yicha o'rtacha 76%,Gollandiya 95%, Rossiya 88%).

**Magazinning koordinatasini toping****5-masala**

(dunyo bo'yicha o'rtacha 63%, Yaponiya 80%, Tayvan 75%, Singapur 78%, Rossiya 68%).

Diyora qog'ozdan korobka yasamoqchi. Chap tarafdagi qaysi shakllardan o'ng tarafdagi korobkani yasash mumkin?

**Masalaga an'anaviy yondashish usuli**

- ✓ Tayyor masala shartlarini tahlil qilish
- ✓ Masala yechilishining usulini aniqlash
- ✓ Yechish jarayoni
- ✓ Olingan natijani etalon javob bilan formal solishtirish.

Masalaga muammo sifatida yondashish usuli

- ✓ Muammoli vaziyatni tahlil qilish
- ✓ Muammo qo'yilishi
- ✓ Yetmaydigan ma'lumotlarni izlash va gipotezalarni (ilmiy taxminlarni) shakllantirish
- ✓ Gipotezalarni tekshirish va muammoli vaziyatga oid yangi bilimlarga ega bo'lish
- ✓ Muammoni masalaga aylantirish
- ✓ Masala yechilishining usulini izlash
- ✓ Yechish jarayoni
- ✓ Olingan natijani tekshirish
- ✓ Yechimning to'g'riligini asoslash

Bo'shliqlarni to'ldirishdan avval uning kelib chiqish sabablarini aniqlash kerak. O'quvchida qanday hollarda bo'shliqlar hosil bo'lishi mumkin:

- ✓ o'quv moddiy bazani yetarli emasligi;
- ✓ darslikni yetishmasligi;



- ✓ o'qituvchida kasb-mahoratni yetishmasligi;
- ✓ mavzularni murakkabligi;
- ✓ laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun jihozlarni yetarli emasligi;
- ✓ ota-onalarni o'quvchini o'qishiga befarqligi;
- ✓ o'quvchini dars jarayonidagi kayfiyati;
- ✓ salomatligi;
- ✓ uy vazifalarni bajarmasligi;
- ✓ o'quvchini bilimini va berilgan vazifalarni tizimli muntazam nazorat qilmaslik
- ✓ darsda qatnashmaslik
- ✓ oila va sinf rahbari bilan hamkorlikda ishlamaslik kabilar.

TIMSS – (Trends in International Mathematics and Science Study) maktabdamatematika va tabiiy fanlarni o'qitish sifatining xalqaro monitoringi bo'lib, ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan tashkil etiladi. Mazkur dastur 4-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilim darajasi, sifatini solishtirish hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur dasturning o'ziga xosligi shundaki, u dunyodagi maktablarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilarning bilim darajasi, tahsil oluvchilarning oilaviy muhiti bilan bog'liq omillarni o'rganadi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda milliy innovatsion tizimni rivojlantirish hamda innovatsion potensialini takomillashtirmoq mamlakatning iqtisodiy o'sishning eng muhim omillari hisoblanmoqda. Shuning uchun mazkur omillarni tadqiq etish muammolari dunyoning ko'plab davlatlar va xalqaro tMaktabda pedagogik faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlarini ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirish, ta'lim siyosatining asosiy aspektlari bo'yicha ta'lim sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish Xalqaro konsorsium, o'qituvchilar assotsiatsiyasi, mamlakatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurdir.

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etib o'quvchilarimizda maktabda olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish, buning uchun ma'sul vazirlik va idoralar tomonidan quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz zarur bo'ladi:

- Ta'lim sifatini xolisona monitoring qilish imkonini beradigan milliy baholash tizimini yaratish.
- Ta'lim sifatiga tasir qiluvchi moddiy-texnik bazani shakllantirish.
- Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish.
- Xalqaro tadqiqotlar asosida qo'shimcha metodik qo'llanma va adabiyotlarni yaratish.
- Xalqaro tadqiqotlar yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish .
- Xalqaro tadqiqotlariga asoslangan holda tegishli fanlardan o'qitishning shakllari metodlari va texnologiyalarini yangilash va o'quvchilarning bu borada xabardorligini oshirish, tayyorgarligini kuchaytirish bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish
- Pedagog kadrlar tayorlovchi oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarini xalqaro tadqiqotlar talabalarga moslashtirish tashkilotlar uchun dolzarbdir.

Hozirgi kunda milliy o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi doirasida bolalarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko'nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Shu orqali biz xalqaro baholash dasturlarida natijaga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmadzhonova, Y. T., & Akhmadzhonova, U. T. (2021). "Press conference" in the delivering of chemistry. Экономика и социум, (3-1), 20-22.
2. Axmadjonova Yo.T., Yaxshiyeva Z. Z., Axmadjonova U.T. Ta'lim sifatini baholash xorij tajribasi misolida o'rganilmoqda // O'qituvchining kasbiy standarti: amaliyotga joriy qilish va istiqboldagi vazifalar.-2021.



3. Ахмаджонова Ё. Т. PISA- Таълим сифатини ошириш мезони //Аграр фан назарияси ва амалиётидаги долзарб муоммолар ва уларнинг ечимлари .- 2020. Т.-821-824 б. 4 том
4. Ахмаджонова Ё.Т. PISA: «Студентов нужно научить думать, а не запоминать»// Научный журнал «Гуманитарный трактат».-2021.-с.12-15
5. Жураева, Н. М., & Ахмаджонова, У. Т. (2021). Использование творческой работы в кругах. Экономика и социум, (3-1), 552-555.
6. Siddikova Sh. A., Axmadjonova Yo. T., Yaxshieva Z. Z., PISA - a criteria for improving the quality of education//Galaxy international interdisciplinary research journal, Vol. 9, Issue 5, May (2021)
7. Yaxshieva Z. Z., Axmadjonova Yo. T., Siddikova Sh. A.. Pisa - ta'lim sifatini oshirish mezonini // «Современные тенденции начального образования: интеграция образования и подготовки» Международная научно-практическая конференция. - Джизак, 2021 . – с.313-316
8. Yaxshieva Z. Z., Ahmadjonova Yo. T., PISA : “O‘quvchiga yodlashni emas, fikrlashni o‘rgatish kerak”// Инновацион ривожланишда ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб масалалари.-2020. 33-35 бет
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabr,997-son qarori, www.lex.uz.